

PSIXONEVROLOGIK DISPANSERLARDA TARBIYALANUVCHI BOLALARNING XULQ-ATVORINI ANIQLASH

Qodirov Obid Safarovich

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti "Amaliy psixologiya" kafedrası
mudiri, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor*

**Djurakulova Nilufar Nodirovna
Xudoyorova Feruza Movdurjon qizi**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Psixologiya yo'nalishi talabalari

Annotatsiya: Ushbu ilmiy tadqiqot psixonevrologik dispanser sharoitida ta'lim va tarbiya jarayonida qo'llaniladigan metodlarning samaradorligini o'rganishga bag'ishlangan. Kuzatish, suhbat, psixodagnostik testlar va eksperimental mashg'ulotlar asosida turli metodlar sinovdan o'tkazildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, interfaol va shaxsga yo'naltirilgan metodlar an'anaviy usullarga qaraganda yuqori samaradorlik beradi.

Kalit so'zlar: Psixonevrologik dispanser, ta'lim, tarbiya, interaktiv metodlar, samaradorlik, psixologik rivojlanish, temperament, noan'anviy darslar, art terapiya, Kruskal Uollis testi, statistik ma'lumotlarni qayta ishlash.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ПОВЕДЕНИЯ ДЕТЕЙ, ВОСПИТАННЫХ В ПСИХИАТРИЧЕСКИХ ДИСПАНСЕРАХ

Аннотация: Данное научное исследование посвящено изучению эффективности методов, применяемых в образовательном и воспитательном процессе в условиях психоневрологического диспансера. На основе наблюдений, бесед, психодиагностических тестов и экспериментальных занятий были апробированы различные методы. Результаты показали, что интерактивные и личностно-ориентированные методы обладают более высокой эффективностью по сравнению с традиционными способами.

Ключевые слова: Психоневрологический диспансер, образование, воспитание, интерактивные методы, эффективность, психологическое развитие, темперамент, нетрадиционные занятия, арт-терапия, критерий Краскела—Уоллиса, обработка статистических данных.

DETERMINING THE BEHAVIOR OF CHILDREN RAISED IN PSYCHONEUROLOGICAL DISPENSARS

Annotation: This scientific study is devoted to examining the effectiveness of methods used in the educational and upbringing process under the conditions of a psychoneurological dispensary. Various methods were tested based on observation, interviews, psychodiagnostic tests, and experimental sessions. The results showed that interactive and learner-centered methods are more effective than traditional approaches.

Key words: *psychoneurological dispensary, education, upbringing, interactive methods, effectiveness, psychological development, temperament, non-traditional lessons, art therapy, Kruskal–Wallis test, statistical data processing.*

KIRISH

Psixik va nervologik kasalliklarga chalingan bolalar alohida e'tibor va moslashtirilgan ta'lim sharoitlarini talab qiladi. Ularning rivojlanish xususiyatlari sababli, maxsus ta'lim dasturlari ishlab chiqilishi, pedagogik va psixologik yondashuvlar qo'llanilishi muhimdir. Ushbu maqolada ushbu bolalar uchun ta'lim jarayonini tashkil etish, metodlar va sharoitlar haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Psixik va nervologik kasallikka chalingan bolalarda quyidagi xususiyatlar kuzatilishi mumkin:

Intellectual rivojlanishning orqada qolishi yoki muayyan buzilishlar;

Diqqat, xotira va tafakkur jarayonlarining sekinlashishi;

Emotsional beqarorlik, o'ziga ishonchsizlik;

Harakat va nutq rivojlanishidagi nuqsonlar;

Ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklar.

Bu xususiyatlarni hisobga olib, ta'lim dasturlari individual yondashuv asosida tuzilishi kerak.

Tadqiqot maqsadi: Psixonevrologik dispanser sharoitida tarbiyalanayotgan bolalarda ta'lim va tarbiya jarayonida qo'llaniladigan metodlarning samaradorligini aniqlash hamda eng samarali metodlarni amaliyotga joriy etishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

1. Psixonevrologik dispanser sharoitida ta'lim va tarbiya jarayoniga oid ilmiy-nazariy manbalarni tahlil qilish.

3. Bolalarning psixofiziologik xususiyatlariga mos ta'lim va tarbiya metodlarini tanlash.

4. An'anaviy, interfaol hamda shaxsga yo'naltirilgan metodlar asosida mashg'ulotlar tashkil etish.

5. Psixonevrologik dispanserdagi bolalarda alifbo harflarini o'zlashtirish jarayonida qo'llaniladigan metodlarning samaradorligini, temperament bilan bog'liqligini va diqqat, xotira, motivatsiyaga ta'sirini aniqlash.

Vazifalar:

1. Bolalarni 3 guruhga ajratish: an'anaviy, interfaol, shaxsga yo'naltirilgan.

2. Har bir guruhda temperamentga mos metodlarni qo'llash.

3. Diqqat, xotira va motivatsiyani o'lchash metodikalarini qo'llash:

Diqqat: "Diqqatni konsentratsiyalash testi" (5 daqiqalik vazifa)

4. Xotira: "Qisqa muddatli xotira testi" (so'z va raqam ketma-ketligi)

5. Motivatsiya: "O'z-o'zini baholash va rag'batlantirish anketasi" (5 ballik shkalada)

Harflarni o'zlashtirishni 3 oy davomida baholash.

6. Statistik tahlil: O'rtacha qiymatlar, dispersiya, Kruskal–Wallis testi, temperament va metod o'rtasidagi bog'liqlik.

Tadqiqot predmeti: Psixonevrologik dispanserdagi bolalar bilan ishlashda qo'llaniladigan ta'lim va tarbiya metodlarining samaradorligi

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish;

kuzatish;

suhbat;

psixodiagnostik testlar (diqqatni o'lchash testlari, temperament testi);

anketa so'rovlari;

pedagogik eksperiment;

statistik va sifat tahlili.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Psixonevrologik dispanser sharoitida ta'lim va tarbiya metodlarining samaradorligi tajriba asosida taqqoslandi.

Interfaol va shaxsga yo'naltirilgan metodlarning bolalar diqqat va motivatsiyasiga ta'siri aniqlandi.

Dispanser sharoitida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalari psixonevrologik dispanserlarda faoliyat yurituvchi pedagoglar, psixologlar va tarbiyachilar tomonidan ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda foydalanilishi mumkin.

So'nggi yillarda bolalar ruhiy salomatligini muhofaza qilish va ularning to'laqonli rivojlanishini ta'minlash masalasi jamiyat oldida muhim vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, psixonevrologik dispanserlarda davolanayotgan bolalar bilan olib boriladigan ta'lim va tarbiya jarayoni maxsus yondashuvni talab etadi. Ushbu toifadagi bolalarda nerv tizimi faoliyatidagi o'zgarishlar tufayli diqqatning tez charchashi, xotira jarayonlarining sustligi, emotsional beqarorlik va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar kuzatiladi. Shunga ko'ra biz Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiyamaliy tibbiyot markazi psixiatriya xizmati bo'yicha Samarqand viloyat filiali bolalar bo'limida 15 nafar 7-14 yosh oralig'idagi bolalarda eksperiment o'tkazdik. Tadqiqot davomida an'anaviy, interfaol va individual metodlarning samaradorligini ilmiy jihatdan aniqlashga harakat qildik. Guruh ishtirokchilar soni 5 nafardan dastlab har bir guruh ishtirokchilarning individual xarakter temperament xususiyatlarini o'rgandik. Olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan;

1-jadval:

T\	F.I.SH 1-guruh	Temperament	F.I.SH 2-guruh	Temperament	F.I.SH 3-guruh	Temperament
1	Xujaqulova Zulfiya	flegmatik	Quvondiqova E'zoza	melonxolik	Nizomov Nodirbek	melonxolik
2	Akobirov Javohir	sangvinik	Baxriddinov Muxriddin	xolerik	Norjigitova Xumora	xolerik
3	Temirova Marjona	flegmatik	Mexrojova Parizoda	xolerik	Davronov G'iyosjon	flegmatik
4	Islomov Islom	sangvinik	Jamolov Umar	sangvinik	Hasanova Sevinch	xolerik

5	Murodov Farrux	xolerik	Ziyodullayev shodiyor	melonxolik	Jabbarova Bahora	sangvinik
---	-------------------	---------	--------------------------	------------	---------------------	-----------

Sangvinik (S) – ijtimoiy faol, quvnoq, tez moslashadi, hissiyoti o'rtacha darajada

Xolerik (X) – faolligi yuqori, hissiyoti tez, qaror qabul qilishda tezkor

Melankolik (M) – hissiyotga boy, nozik, sekin moslashadi, oson charchaydi

Flegmatik (F) – barqaror, sekin, sabrli, hissiy jihatdan tekis

1-guruh (an'anaviy metodlar)

F – 2 bola → flegmatik, barqaror va sabrli, lekin faoliyati sustroq, oson charchashi mumkin

S – 2 bola → sangvinik, ijtimoiy faol, tez o'zlashtiradi, diqqatni qisqa muddat davomida ushlab turadi

X – 1 bola → xolerik, faol, tezkor, lekin impulsiv bo'lishi mumkin

Izoh: An'anaviy metodlarda flegmatik va xolerik bolalarning diqqat va faolligi boshqacha ishlaydi. Flegmatiklar sekin moslashadi, xoleriklar esa tez charchashi mumkin.

2-guruh (interfaol metodlar)

F – 0

X – 2 bola → xolerik, faol, ijtimoiy o'yinga moslashadi, energiyasi yuqori

M – 2 bola → melankolik, nozik, sekin o'zlashtiradi, motivatsiyani qo'llab-quvvatlash kerak

S – 1 bola → sangvinik, tez o'zlashtiradi, motivatsiyasi yuqori

Izoh: Interfaol metodlar xolerik va sangvinik bolalar uchun samarali, chunki ular faol va tezkor. Melankolik bolalar uchun esa individual e'tibor kerak.

3-guruh (shaxsga yo'naltirilgan metodlar)

M – 1 bola → melankolik, nozik, individual yondashuv talab qiladi

X – 2 bola → xolerik, faol, tez qaror qabul qiladi

S – 1 bola → sangvinik, ijtimoiy faol

F – 1 bola → flegmatik, barqaror, sekin, sabrli.

Har bir guruhda temperamentga mos metodlar ishlatildi:

Sangviniklar: interfaol o'yin va vizual materiallar

Flegmatiklar: qadam-baqadam individual mashg'ulotlar

Xoleriklar: motivatsion o'yinlar, faol rolli vazifalar

Melonxoliklar: individual psixologik treninglar va vizual mashqlar

Bu natijalar respondentlarning individual xususiyatlarini o'rganadi. Endi esa ularning diqqat, xotira, motivatsiyasini o'rganamiz: Diqqat, xotira va motivatsiyani o'lchash Bolalarning diqqat, xotira va motivatsiyasi quyidagi metodikalar orqali baholandi: Diqqat: "Diqqatni konsentratsiyalash testi" yordamida bolalar 5 daqiqalik vazifa bajarib, konsentratsiyalash qobiliyatini ko'rsatdi. Ballik tizim 1 dan 5 gacha, 1 – past, 5 – yuqori.

Xotira: "Qisqa muddatli xotira testi" yordamida ketma-ket harflarni yoki so'zlarni eslab qolish baholandi. Ballik tizim 1–5.

Motivatsiya: O'z-o'zini baholash va rag'batlantirish anketasi yordamida bolalarning ta'lim jarayoniga qiziqishi va o'zini rag'batlantirish qobiliyati baholandi. Ballik tizim 1–5. Olingan statistik ma'lumotlarga ko'ra an'anaviy metodlar bilan ishlagan bolalarda o'rtacha 3 ball, interfaol metodlarda 4 ball va shaxsga yo'naltirilgan metodlarda 5 ball baholandi. Ularning individual va kognitiv (bilish) jarayonlarini hisobga olgan holda 3 xil yondashdik. Shu bilan birga, temperamentga moslashuv diqqat, xotira va motivatsiya ko'rsatkichlarini oshirdi. Shaxsga yo'naltirilgan metod eng yuqori samaradorlikni ko'rsatdi.

Temperament va metod samaradorligini tahminiy tahlil shuni ko'rsatdiki, sangvinik bolalarda interfaol metod, flegmatik bolalarda shaxsga yo'naltirilgan metod, xolerik bolalarda interfaol va shaxsga yo'naltirilgan metodlar, melonxolik bolalarda esa shaxsga yo'naltirilgan metod eng samarali bo'ldi. 1-guruh o'quvchilariga darslar oddiy tushuntirish ma'ruza ko'rinishda olib borildi va birinchi darsda Alifbo tartibida o'rgatilgan harflardan 29 tadan o'rta arifmetik hisobda 13 tasini eslab qolishgan. Bu natija esa taqriban o'rta arifmetikdan past

Hisoblash formulasi: $A = a + b + c = abc \setminus n$

2-guruh Interaktiv metodlar bo'yicha olib borilgan darslarda o'quvchilarda ya'ni qumlarga harflar yozish, harflar chiqarilgan rasmlarni bo'yash, ranglarga rasmlarni bog'lab o'rganishda esa 29 tadan o'rta arifmetik hisobda 17 tasini eslab qolishgan. Bu natija esa taqriban o'rta arifmetikga yaqin

3-guruh shaxsga yo'naltirilgan metodlar (individual guruhlarda) foydalanilgan metodlar yakka tartibda ishlash va harflarni qalam joylashuvida joylashtirib eslab qolishdan iborat edi ushbu guruhdan olingan natijalar esa 29 tadan o'rta arifmetik hisobda 21 tasini eslab qolishgan. Bu natija esa taqriban o'rta arifmetikdan yuqoridir.

Keltirilgan natijalardan kelib chiqqan holda e'tiboringizni quyidagi statistik tahlilga qaratishingizni so'raymiz;

KRUS KAL–WALLIS TESTI BO'YICHA STATISTIK TAHLIL

Tadqiqot materiali va usuli

Tadqiqot psixonevrologik dispanser sharoitida ta'lim olayotgan bolalarda alifbo harflarini o'zlashtirish darajasini o'rganishga qaratildi. Baholash mezon: 3 oy davomida 29 ta harfdan nechta harf eslab qolinganligi.

Respondentlar uchta mustaqil guruhga ajratildi:

- 1-guruh – an'anaviy (tushuntirish, ma'ruza) metodlar
- 2-guruh – interfaol metodlar
- 3-guruh – shaxsga yo'naltirilgan metodlar

Har bir guruhda 5 nafardan bola ishtirok etdi (N = 15).

2-jadval:

Guruh	O'zlashtirilgan harflar	Reytinglar	Reytinglar yig'indisi (R_i)	Reytinglar yig'indisi (R_i)
Reytinglar yig'indisi (R_i)	11, 12, 13, 14, 15	1, 2, 3, 4, 5.5	15.5	15 qiymatiga o'rtacha reyting qo'llandi
2-guruh (interfaol)	15, 16, 17, 18, 19	5.5, 7, 8, 9, 10.5	40	15 va 19 qiymatlari o'rtacha reyting
3-guruh (shaxsga yo'naltirilgan)	15, 16, 17, 18, 19	10.5, 12, 13, 14, 15	64.5	19 qiymatiga o'rtacha reyting

Kruskal-Wallis testi hisoblash

Formula:

$$H = (12 / N(N+1)) * \sum (R_i^2 / n_i) - 3(N+1)$$

Hisoblash:

$$H = (12 / (15*16)) * (15.5^2/5 + 40^2/5 + 64.5^2/5) - 48 = 12.01$$


Erkinlik darajasi: $df = 3 - 1 = 2$

Kritik qiymat ($\alpha = 0.05$): $\chi^2 = 5.99$

Natija: $H = 12.01 > \chi^2 = 5.99$

Kruskal-Wallis testi natijalariga ko'ra ($H = 12.01$; $p < 0.05$), alifbo harflarini o'zlashtirish darajasi bo'yicha uch guruh o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq mavjud. Eng yuqori natijalar shaxsga yo'naltirilgan metodlar qo'llanilgan 3-guruhda, eng past natijalar esa an'anaviy metodlar asosida ishlagan 1-guruhda kuzatildi.

Reytinglash jarayonida takrorlangan qiymatlar (15 va 19) uchun o'rtacha reyting qo'llanildi.



O'rtacha eslab qolgan harflar soni diagrammasi

Ushbu tadqiqot psixonevrologik dispanser sharoitida ta'lim olayotgan bolalarda alifbo harflarini o'zlashtirish samaradorligini o'rganishga qaratildi. Bolalar dastlab harflarni tanimas, sonlarni bilmas va alifbo bilan tanishmagan holatda bo'lib, ularning boshlang'ich bilim darajasi nolga teng edi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, psixonevrologik

dispanserdagi bolalar bilan ishlashda eng samarali yondashuvlar — shaxsga yo'naltirilgan va interfaol metodlar bo'lib, ular bolalarning alifbo va boshlang'ich bilimlarni tez va samarali o'zlashtirishiga imkon beradi.

Interfaol va individual yondashuvlar bolalarning diqqat, xotira va motivatsiyasini sezilarli darajada oshirdi. An'anaviy metodlar esa faqat qisqa muddatli natija berdi va chuqur bilim shakllantirish imkonini bermadi. Shuningdek, temperamentga moslashuv qo'llanishi natijalarni yanada yaxshiladi.

Shu sababli psixonevrologik dispanserlarda ta'lim jarayonini interfaol o'yin texnologiyalari, psixologik treninglar va individual mashg'ulotlar asosida tashkil etish tavsiya etiladi. Kelajakda temperament va metod samaradorligini yanada chuqur statistik tahlil qilish tadqiqot natijalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, psixik va nervologik kasalliklarga chalingan bolalar uchun ta'lim jarayoni maxsus yondashuvni talab qiladi. Maktabgacha va umumiy o'rta ta'limda individual metodlarni qo'llash, maxsus dasturlar asosida ta'lim berish va reabilitatsiya tadbirlarini olib borish ushbu bolalarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ota-onalar, pedagoglar va tibbiyot mutaxassislari hamkorligi orqali bu bolalar jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiya bo'lishlari mumkin. Erta bolalik kognitiv va ijtimoiy-emotsional rivojlanish uchun hal qiluvchi davr bo'lib, bolaning kelajagi uchun asos yaratadi.

Ota-onalar, tarbiyachilar va o'qituvchilar bolaning psixologik farovonligini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishini kuchaytirishning samarali strategiyalarini yoritishga qaratilgan psixologik ta'lim va tarbiyaning turli shakllarini o'rganadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 1991.
2. Klimov E.A. Differensial psixologiya. – Moskva: Akademiya, 2002.
3. Asmolov A.G. Shaxs psixologiyasi. – Moskva: Moskva universiteti nashriyoti, 2007.
3. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
4. G'oziyev E.G. Yosh va pedagogik psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2014.
5. Karimova V.M. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
6. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi ta'lim-tarbiya jarayoniga oid me'yoriy hujjatlari.